

HARBIY QISMNING XO‘JALIK FAOLIYATINI YURITISH TARTIBI

G‘ayrat Madiyarovich Madaminov

UzMU harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi front orti va moliyaviy ta‘minot sikli boshlig‘i

Mingboyev Ibrohim Alisher o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi kursanti, TMI talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847713>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Harbiy qismni moddiy vositalar (mablag‘lar) bilan ta‘minlash. Harbiy qism tomonidan xo‘jalik shartnomalarini tuzilishi. Harbiy qismning hammom va kir yuvish xizmatini tashkil etishning asosiy qoidalari tahliliga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: harbiy qism, moddiy vosita, xo‘jalik faoliyati, xizmat safari, shaxsiy tarkib.

ПОРЯДОК РУКОВОДСТВА ХОЗЯЙСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ВОЙСКОВОЙ ЧАСТИ

Аннотация. В данной статье предусмотрено обеспечение воинской части материальными средствами (средствами). Заключение хозяйственных договоров воинской частью. Будут проанализированы основные правила организации санузла и прачечной воинской части.

Ключевые слова: воинская часть, материальные средства, хозяйственная деятельность, командировка, личный состав.

THE PROCEDURE FOR MANAGING ECONOMIC ACTIVITIES OF THE MILITARY UNIT

Abstract. In this article, the provision of material means (funds) to the military unit. Conclusion of economic contracts by the military unit. The main rules of organizing the bathroom and laundry service of the military unit will be analyzed.

Key words: military unit, material means, economic activity, business trip, personal composition.

Bizga ma‘lumki, Harbiy qismlarni moddiy vositalar bilan ta‘minlash - ularni tinchlik va harbiy vaqtda ehtiyojlarini o‘z vaqtida qondirish maqsadida amalga oshiriladi. Harbiy qismlarni moddiy vositalar bilan ta‘minlash tizimi o‘z ichiga quyidagilarni oladi: moddiy vositalarga bo‘lgan talablarini aniqlash, markazlashgan holda yetkazib berish va markazlashgan tizim orqali sotib olingan moddiy vositalarni, belgilangan me‘yorlarga asosan zaxiralarini tuzish, ularni saqlash, bevosita istemolchilarga tarqatish, foydalanishni (moddiy vositalarni sarflashni) tashkillashtirish, ularni ta‘mirlash va foydali suratda ishlatish.

Markaz

harbiy
okrug

qo‘shilma

harbiy
qism

bo‘linma

harbiy
xizmatchi
(texnika)

Qo‘shilma (harbiy qismlar)ni moddiy vositalar (HHK nomenklaturasidagi moddiy vositalari va uy-joy mulklaridan tashqari) hududiy tamoyillarga asosan ta‘minlash chizmasi¹

Xo‘jalik apparati va mustaqil ravishda xo‘jalik faoliyatini yuritish uchun kerakligicha o‘quv moddiy bazalar mavjud bo‘lgan harbiy qismlar O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligini markaziy apparatidagi bosh boshqarmalar, boshqarmalar, bo‘lim va xizmatlar boshliqlarining buyruqlari (farmoyish)lari asosida okruglar (markaziy) omborlar (baza)larga moddiy vositalar ta‘minoti bo‘yicha biriktiriladilar.

Qo‘shilma va harbiy qismlarni bir qarorgohdan boshqasiga o‘tkazganda ularni ta‘minotga qo‘yish uchun asos quyidagilar hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining buyrug‘i (direktivasi);
- avvalgi qarorgohidagi ta‘minlovchi organlar tomonidan berilgan shahodatnoma; yuqori turuvchi ta‘minot organlari tomonidan tasdiqlangan oxirgi hisobotlardan nusxa.

Yangitdan tashkil qilinayotgan harbiy qismlar O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining direktivasi asosida, ularni tashkil qilish va tashkil qiluvchi tomonidan berilgan shahodatnomalar asosida barcha turdagi ta‘minot turlariga qo‘yiladi.

Harbiy okrug hududidagi bir garnizondan boshqa garnizonga (bir harbiy qismdan boshqasiga) keluvchi alohida komandalar va harbiy xizmatchilarni front orti ta‘minoti xizmatlari bo‘yicha ta‘minotga qo‘yish huquqi harbiy okruglar qo‘shinlari qo‘mondonining front orti ta‘minoti bo‘yicha o‘rinbosariga beriladi. Bo‘linmalarni, alohida komandalar va alohida harbiy xizmatchilarni ta‘minotga qo‘yish uchun asos shahodatnomalar va xizmat safari guvohnomasi (ta‘til guvohnomasi) hisoblanadi. Harbiy okruglar (markaziy) omborlariga (bazalarga) moddiy vositalar ta‘minotiga biriktirilgan harbiy qismlar (bo‘linmalar) bir harbiy okrugdan boshqasiga o‘tkazilganda, harbiy okruglarni tegishli xizmatlari (boshqarmasi, bo‘limi) shahodatnomalar beradilar. Qo‘shilma (harbiy qismlarga) moddiy vositalar ta‘minotiga biriktirilgan xo‘jalik faoliyatini yurituvchi harbiy qismlar, bir harbiy okrugdan boshqasiga o‘tkazilganda, shahodatnomalarni ushbu qo‘shilma (harbiy qismlar) tomonidan beriladi.

Shahodatnomalarni nusxalari harbiy okruglarning tegishli xizmatlariga (boshqarma, bo‘linma)lariga jo‘natiladi. Qo‘shilma (harbiy qism)ni bir harbiy okrug hududi ichida ko‘chirilganda moddiy vositalarga shahodatnomalar beriladi:

- qo‘shilma (harbiy qismlar)ga - boshqa qo‘shilma (birlashma) tarkibiga ketganda yoki qo‘shilma (harbiy qism)ni qo‘shilma (birlashma) ta‘minotidan echganda va okrug (markaz) omborlari (bazalari)ga ta‘minotga biriktirilganda;

uchishga oid va HHM va HHK, hamda QQ VA qismlari - qo‘shilma harbiy qismlari tomonidan ta‘minotdan echilganda.

Shahodatnomalarga moddiy vositalarni ketayotgan kundagi hisobdagi soni, toifasi, hamda yo‘qotilgan moddiy vositalar bo‘yicha kamomadlar bo‘yicha uzilmagan qarzar summasi va oxirgi moddiy vositalarni inventarizatsiyai va taftishi sanasi yoziladi.

Ushbu vaziyatlarda moddiy vositalarning mavjudligi Qo‘shilma (harbiy qismlar)ni ta‘minotdan chiqarilgan kunidagi tuzilgan inventarizatsiya (inventarizatsiya) ro‘yxatlari bilan

¹ Muallif tomonidan tayyorlandi.

tasdiqlanadi. Yangitdan qayta tuzilgan Qo‘shilma (harbiy qismlar) inventarizatsiya (inventarizatsiya) ro‘yxatini taqdim etmaydilar.

Qo‘shilma (harbiy qism)ni doimiy qarorgohidan ketishidan oldin ularga belgilangan me‘yorlar asosida barcha moddiy vositalar bilan ta‘minlanadilar, kiyim-kechak buyumlari-joriy yarim yillikning oxirigacha beriladi.

Qo‘shilma (harbiy qism) komandiri boshqa qarorgohga ko‘chirishbo‘yicha buyruq (direktiva)ni olgandan keyin o‘zining o‘rinbosarlari va qo‘shinlar turi va xizmat boshliqlari orqali yangi qarorgohga jo‘nashdan oldin quyidagilarni bajarishi lozim:

➤ xizmatlar bo‘yicha taqqoslashni tashkillashtirish va inventarizatsiya (inventarizatsiya) ro‘yxatlarini taqdim etish;

➤ uy-joy fondida, kommunal qurilmalarda, asbob-uskunalarini, harbiy shaharcha hududini, uy-joy mulklarini, hamda bino va imoratlarni konservatsiya qilish ishlarini o‘tkazishni tashkillashtirish;

Uy-joydan foydalanish qismiga dalolatnomalar va ro‘yxatlar bo‘yicha uy-joy fondi, kommunal qurilmalar, asbob-uskunalarini, harbiy shaharcha hududini, uy-joy mulklarini, hamda bino va imoratlarni, er uchastkalarini, mebellarni va boshqa uy-joy mulklarini, UJF fondi extiyohlari uchun foydalanish uchun tayyorlangan materiallar qoldig‘ini, hamda ishlar, inshotlar va mulklar (foydalanish bo‘yicha hisob hujjatlari, jurnallarni, pasportlarni) barcha hujjatlarni topshirish va birvaqtning o‘zida uy-joydan foydalanish qismi boshlig‘idan shahodatnoma olish.

Qo‘shilma (harbiy qism)ni boshqa joyga ko‘chirilganda zarur bo‘lgan paytlarda katta komandirning ruxsati bilan harbiy okrug uy-joydan foydalanish organlari bilan kelishilgan xolda uy-joy inventarlari, mebellar va boshqa uy-joy mulklarini olib ketish.

Harbiy okrugga keluvchi qo‘shilmalar (harbiy qism)lar okrugning ta‘minlovchi xizmatlariga quyidagilarni taqdim etadilar:

➤ qo‘shilma (harbiy qism) shahodatnomasini;

➤ qo‘shilma (harbiy qism)ni ta‘minotdan chiqarilgan kunida tuzilgan inventarizatsiya (inventarizatsiya) ro‘yxatlari;

➤ qo‘shilma (harbiy qism) shahodatnomasida ko‘rsatilgan qattiq hisobda turuvchi blankalar.

Harbiy okrug xizmati taqdim etilgan hujjatlarni tekshirganidan keyin:

➤ kelgan qo‘shilma (harbiy qismga) shaxsiy hisob ochadi;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy apparati tegishli bosh boshqarmasi, boshqarmasi, bo‘lim va xizmati boshlig‘ining qo‘shilma (harbiy qism)ni eng yaqinda joylashgan harbiy okrug (markaz)ning omborlari (bazasi)ga yoki eng yaqin qo‘shilma (harbiy qism)ga ta‘minotga qo‘yish bo‘yicha qarorini yozib oladi (tikib qo‘yadi).

Harbiy qism tomonidan xo‘jalik shartnomalarini tuzilishi O‘R MV 2021 yil 21 avgustdagi 666 sonli va O‘RMV 2004 yildagi 550 sonli buyruqlari talablari asosida tuziladi.

Xo‘jalikka oid shartnomaga muvofiq bitim, bir tomon belgilangan muddatlarda tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish yoki o‘z muhiti faoliyatida xizmat ko‘rsatish majburiyatini zimmasiga oladi, boshqa tomon tovarlarni (ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarni) qabul qilish va ularni to‘lash majburiyatini zimmasiga oladi.

➤ Shartnoma munosabatlarini asosiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:

➤ erkin shartnomalarni tuzish;

➤ tomonlarni o‘zaro manfaatdorligi;

- shartnoma intizomiga qat'iy rioya qilish;
tomonlarni mulkchilik bo'yicha o'zaro javobgarligi.

Moddiy vositalarni (ishlarni) sotib olish (xizmatlar ko'rsatish) O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilikka ko'ra shartnoma tenderlari o'tkazish tartibiga asosan tender savdolar xom-ashyolari, materiallar, butlovchi ashyolar va asbob-uskunalarni sotib olish uchun o'tqaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida haqiqiy xizmatni chaqiruv yoki shartnoma asosida oddiy askar, serjant va ofitserlar tarkibi lavozimlarida, hamda harbiy yig'inlarga chaqirilgan harbiy xizmatni bajarishga majbur shaxslarni harbiy xizmatni nizom va buyruqlar asosida o'tash davrida ularning aybi bilan davlatga yetkazilgan moddiy zarar uchun Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Harbiy xizmatchilar va harbiy yig'inga chaqirilgan harbiy majburlar komandirlarning buyrug'ini vijdonan bajarganliklari yoki yaqqol aniq xavf – xatar hollari tasdiqlanib, qonuniy harakatlar tufayli yetkazilgan moddiy zarar uchun moddiy javobgarlikka tortilmaydilar.

Harbiy xizmatchilar va harbiy yig'inlarga chaqirilgan harbiy xizmatni bajarishga majbur shaxslarning aybi bilan davlatga yetkazilgan zarar quyidagi hollarda to'liq miqdorda to'lanadi:

- harbiy mulkni atayin yo'q qilish, ziyon yetkazish buzish, o'g'irlash, yetishmovchilik va noqonuniy sarflash (qurol-aslaha, jangovar va boshqa texnika, o'q-dori, yonilg'i, oziq-ovqat, kiyim-kechak, muxandislik, kimyo, uy-joy xizmati buyumlari, boshqa moddiy va pul vositalari, harbiy qismlar, OHTM, korxonalar va tashkilotlar ixtiyorida bo'lgan;

qasddan qilingan harakatlar tufayli yetkazilgan zarar, jinoiy tarzda ta'qib qilinishidan qat'iy nazar.

Davlatga yetkazilgan moddiy zarar uchun aybdor deb topilgan harbiy xizmatchilarning komandiri (boshliqlari) o'zlarining noto'g'ri ko'rsatmalari tufayli moddiy ta'minot vositalari hisobini yuritish, saqlash, foydalanish, sarflash va tashishni belgilangan qoidalari buzilgan hollarda va o'g'irlik, yetishmovchilik, ziyon yetkazish va buzish tufayli davlatga yetkazilgan zararni aybdor shaxslardan undirish uchun chora-tadbir qo'llanmagan hollarda bir oy ish haqi pul ta'minotidan yuqori bo'lmagan miqdorda moddiy javobgarlikka tortiladilar.

Harbiy qism komandirlari, muassasa boshliqlari, OHTM, korxonalar va tashkilot rahbarlari ishchi va xizmatchilarni noqonuniy tarzda ishdan bo'shatib yoki bir ishdan boshqa ishga o'tkazib, unga yetkazilgan moddiy zararining to'liq qiymatini to'lashga majburlar.

Agar ishdash bo'shatishi yoki boshqa ishga o'tkazishda qonun talablari buzilgan bo'lsa, yoki yuqori qo'mondonlikning qarorini bajarilishi ta'minlanmasa yoki sudning ishchi va xizmachini ish joyiga tiklanishi to'g'risidagi qarori bajarilmasa ular moddiy javobgarlikka tortiladilar.

Qo'shinlarga hammom-kirxona xizmatini ko'rsatish - harbiy xizmatchilar maishiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan. U tana va ichki kiyimlarning tozaligini ushlab turish, teri kassaliklarining oldini olish, shaxsiy tarkibni sog'ligini saqlash va jangovar qobiliyatini ta'minlash maqsadida tashkillashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi hammom-kirxona korxonalarining ish faoliyatini tashkillashtirilishiga va o‘zining moliyaviy – hujalik faoliyati xarakteriga qarab bo‘linadi:

a) o‘z xarajatlarini o‘ziqoplaydigan hammom-kirxona korxonalarini

b) qo‘shinlar (byudjet) hammom-kirxona korxonalarini

Qo‘shin hududida joylashgan, ko‘rsatilgan xizmatlardan tushgan pul vositalaridan ish faoliyatini amalga oshiradigan, bank muassasasida mustaqil balans va to‘lov hisobiga ega bo‘lmagan hammom-kirxona korxonalarini o‘z xarajatlarini o‘ziqoplaydigan hammom-kirxona korxonalarini hisoblanadi.

Qo‘shin (byudjetidagi) hammom va korxonalariga O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi smetasining 4299990031 moddasiga asosan ish yurutadigan hammom va korxonalar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi hammom-kirxona korxonalarini²

Shtatidagi shaxsiy tarkibiga pul ta‘minotini, ish haqini, hamda lager va xizmat safarlarida bo‘lgan vaqtlar uchun sutkalik pul to‘lash O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi smetasi hisobidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, Mudofaa vazirligi smetasining 4234990031 moddasiga qo‘shin hammom-kirxona korxonalarining qo‘yidagi xarajatlari kiradi:

- Kichik hammom-kirxona inventarlari ta‘miri;
- Ichki kiyim va choyshablar ta‘miri;
- Tjoriy ta‘mirlash, kirxona texnologik jixozlari qayta montaj va montaj qilish.
- Mudofaa vazirligi smetasining 4299990031 moddasiga:
- mexnat muxofazasi va texnika xavfsizligi bo‘yicha xarajatlar;
- Maketlar, sxemalar, qo‘llanma va stendlar tayyorlash bo‘yicha xarajatlar;
- Mudofaa vazirligi 4299990031 moddasi bo‘yicha ishlaydigan ishchilarga lagerlarda bo‘lgan vaqtlari uchun so‘tkalik pul to‘lash.

Qo‘shin hammom-kirxona korxonalarini yonilg‘i, suv, bug‘, elektroenergiya, mebel, yong‘in o‘chirish inventarlari va boshqa komunal xizmatlarini ko‘rsatish uy-joydan foydalanish organlari tomonidan amalga oshiriladi.

² Muallif tomonidan tayyorlandi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Umum harbiy Nizomlari. Toshkent -1996 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2021 yil 21 avgustdagi 666 -sonli buyrug‘i: “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo‘shinlarining qo‘shinlar xo‘jaligi to‘g‘risidagi Nizomi”
3. “ Qo‘shinlar xo‘jaligi asoslari” O‘quv qo‘llanmasi Toshkent-2019 y.